

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK- TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“NEFT-GAZKIMYO SANOATI TEXNOLOGIYASI” fakulteti

“NEFT-GAZKIMYO SANOATI TEXNOLOGIYASI” kafedrası

Himoyaga ruxsat berildi

«NGKST» fakulteti dekani
_____dots. Ataulayev Sh.N.
«__»_____2018 yil
Ro'yxatga olish raqami № ____

«NGKST» kafedrası mudiri
_____dots. Bozorov G'.R.
«__»_____2018 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: *Gudronni oksidlash jarayonidan atmosferaga chiqib ketayotgan gazni tozalash jarayonini loyihalash.*

BAJARDI:

**10-14 NGKST guruhi talabasi
Zubaydullayev Sh.**

RAHBAR:

Ochilov A.A.

Himoya kuni _____
DAK bayoni _____
DAK bahosi _____
DAK kotibi _____

Buxoro – 2018 yil

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

"Neft- gazkimyo sanoati texnologiya" fakulteti

"Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi" kafedrası

Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi yo'nalishi 10-14 NGKST guruhi

"Tasdiqlayman" _____

Kafedra mudiri dots. Bozorov G'.R.

2018 yil 04 yanvar

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Zubaydullayev Shaxruz

1.Bitiruv ishining mavzusi: *Gudronni oksidlash jarayonidan atmosferaga chiqib ketayotgan gazni tozalash jarayonini loyihalash.*

14. 12. 2017 yilda kafedra majlisida ma'qullangan va institut rektorining 2017 yil 30 dekabrda 67-KB KT (02) sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati: *1 iyun 2018 yil*

3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar: 250 ming tonna bo'lgan mazutni termik krekinglash jarayoni tahlilida , blokda quvurli o'choqni va hisoblash texnologik qurilma jihozlarni tanlash.

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati):

KIRISH

1. TEXNIK QISM

2. TEXNOLOGIK QISM

3. HISOBLASH QISMI

4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI

5. GRAFIK QISMI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

5. CHIZMA ISHLARI RO'YXATI

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi (lar)

№	Bo'lim nomi	Maslahatchi o'qituvchi F.I.SH.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	Ochilov A.A.	12.01. 2017	23.01.2018 y.
2	Texnik qism	Ochilov A.A.	12.01. 2017	27. 03.2018 y.
3	Texnologik qism	Ochilov A.A.	12.01. 2017	12.04.2018 y.
4	Hisoblash qismi	Ochilov A.A.	12.01. 2017	16.05.2018 y.
5	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	Qurbonov M.	12.01. 2017	20.05.2018 y.
6	Grafik qism	Ochilov A.A.	12.01. 2017	25.05.2018 y.

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarinig nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
I.	Kirish	23.01.2018 y.	
II.	Texnik qism	27. 03.2018 y.	
III.	Texnologik qism	12.04.2018 y.	
IV.	Hisoblash qismi	16.05.2018 y.	
V.	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	20.05.2018 y.	
	Xulosa	25.05.2018 y.	

Bitiruv ishi rahbari

Ochilov A.A.

Topshiriqni bajarishga oldim

Zubaydulayev Sh.

Topshiriq berilgan sana04. 01. 2018 yil

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI UCHUN TOPSHIRIQ

10-14 NGKST guruhi tolibi: Zubaydullayev Sh.

BMI mavzusi: *Quvvati yiliga 250 ming tonna bo'lgan mazutni termik krekinglash jarayoni tahlili va blokdagi quvurli o'choqni hisoblash.*

1. TEXNIK QISM

- 1.1. O'zbekistonda kimyoviy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va taraqqiyoti.
- 1.2. Neftni qayta ishlash zavodidagi asosiy maxsulotlar olish jarayonlari.
- 1.3. Qayta ishlash korxonalarida hosil bo'ladigan yengil gazlar tarkibi.
- 1.4. Absorberlar va ularning turlari.

2. TEXNOLOGIK QISM

- 2.1. Gudronni oksidlash texnologik jarayon tavsifi
- 2.2. Gazlarni har xil absorbentlar bilan tozalash texnologiyasi
- 2.3. Uglevodorod gazlarini nordon komponentlardan tozalash
- 2.4. Gaz tarkibidagi namlik miqdorini aniqlash

3. HISOBLASH QISMI

- 3.1. Gudronni oksidlash jarayoni hisobi
- 3.2. Gazlarni tozalashda absorber kolonnasini hisoblash

4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI

- 4.1. Atrof muhitni zararsizlantirish muammolari.
- 4.2. Fuqoro muxofazasi
- 4.3. Mexnatni muxofaza qilish

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston neft-gaz sanoati nafaqat yer osti boyliklarini qazib olish, balki xomashyoni qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqaruvchi majmualar tizimiga aylandi. Bu tarmoq yuksak rivojlangan sanoat ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha qator yirik korxonalarni birlashtirdi.

Hozirgi bosqichda tarmoqning asosiy iqtisodiy yo'nalishlaridan biri uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash va undan qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda eksport geografiyasini kengaytirish hisoblanadi. Bu boradagi loyihalarni amalga oshirish uchun mamlakatimizga neft va gazni qazib chiqarishda etakchi qator yirik chet el kompaniyalari jalb etilmoqda. Rossiyaning "Lukoil" neft kompaniyasi bilan hamkorlikda "Qandim-Xauzak-SHodi-Ko'ng'iro't" mahsulot taqsimoti bitimi doirasida bunyod etilgan Qandim gazni qayta ishlash majmuasi ulardan biridir.

Korxona foydalanishga topshirilgach, 2 mingdan ortiq doimiy ish o'rni yaratildi. Qandim gazkondensat konlari guruhi negizida bunyod etilgan mazkur sanoat korxonasi O'zbekiston – Rossiya hamkorligining yuksak namunasidir. Uning ishlab chiqarish quvvati yiliga 8,1 milliard kub metr tabiiy gazni qayta ishlashga mo'ljallangan. Majmua to'la quvvat bilan ishlaganda 212 ming tonna sof oltingugurt, 134 ming tonna barqarorlashtirilgan gaz kondensati olinadi, tozalangan tabiiy gaz eksportga yo'naltiriladi.

Davlatimiz rahbari Harakatlar strategiyasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar sanoatning etakchi yo'nalishlarini izchil rivojlantirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi. Yoqilg'i-energetika tarmog'iga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilayotgani, Qandim gazni qayta ishlash majmuasi O'zbekiston bilan Rossiya hamkorligi barcha sohada jadal rivojlanib borayotganining yorqin namunasi ekanini qayd etdi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

Yangi korxona viloyat iqtisodiyoti uchun o'ziga xos lokomotiv bo'libgina qolmasdan, butun mamlakatimizni uglevodorod mahsulotlari bilan ta'minlash tizimini tubdan yaxshilash va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 28 sentyabrdagi «2016 – 2020 yillarda uglevodorod xom ashyosini chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida bu boradagi ishlar izchil rivojlantiriladi.

Umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod ushbu ulkan loyihada Janubiy Koreyaning "Xyunday injenering" kompaniyasi asosiy quruvchi-pudratchilardan bo'ldi. Hech shubhasiz, bu yangi sanoat kompleksi nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasidagi noyob sanoat ob'ektlaridan biriga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoev alohida ta'kidlaganidek, O'zbekiston faqat tabiiy xomashyosi bilan cheklanmay, uni chuqur qayta ishlashda Qandim majmuasi katta imkoniyat yaratadi.

Qandim gazni qayta ishlash majmuasining 19 aprel 2018 yilda ishga tushirilishi O'zbekistonda gaz konlarini o'zlashtirishda yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan neft-gaz sohasi rivoji mamlakatimiz iqtisodiy yuksalishi va xalqimiz farovonligi yanada oshishida muhim omil bo'ladi.

Energetika sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarga muvofiq, Jizzax viloyatida zamonaviy neftni qayta ishlash kompleksi barpo etiladi. Qiymati 2,2 milliard dollar bo'lgan loyiha yiliga 5 million tonna neft xomashyosini qayta ishlash imkonini beradi. Rejaga ko'ra, yangi qurilayotgan zavod har yili 3,7 million tonna motor moyi, 700 ming tonna aviatsiya kerosini va 300 ming tonna qushimcha neft mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi. Zavod qurib bitkazilishi 2022 yilga rejalashtirilgan. Umumiy qiymati 2,2 milliard dollar bo'lgan neftni qayta ishlash zavodi yiliga 5 million tonna neftni qayta ishlash quvvatiga ega bo'ladi. Yangi zavodga xom ashyo Rossiyadan, Qozog'iston orqali olib kelinadi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

O'zbekiston prezidentining Qozog'iston va Rossiyaga davlat tashriflarida olib borilgan samarali muzoqaralar natijasida majmua uchun xomashyo yaqinda barpo etiladigan neft quvuri orqali yetkazib kelinadi. Bu energiya resurslarini yetkazish xarajatlarini keskin kamaytiradi va loyihaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Majmuaning geografik joylashuvi ishlab chiqarilgan mahsulotni mamlakatning barcha hududlariga va eksportga minimal xarajatlar bilan etkazish imkoniyatini ta'minlaydi.

Zavodda uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha eng zamonaviy, ekologik va energetik jihatdan samarador texnologiyalar o'rnatiladi. Ular asosida jahon standartlariga javob beradigan motor va aviatsiya yoqilg'isi, benzol, mazut, bitum va boshqa neft mahsulotlari ishlab chiqariladi. Majmuaning ishga tushirilishi 2 mingdan ziyod, iqtisodiyotga aloqador va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida qo'shimcha 14 mingdan ortiq kishining bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradigan muhim uglevodorodli salohiyatga ega. Hisob-kitoblarga ko'ra, Markaziy Osiyodagi barcha mineral zaxiralarning uchdan bir qismi O'zbekistonda joylashgan. Mamlakatimiz gazni qazib chiqarish bo'yicha dunyoning ilg'or yigirmataligiga kiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotivlaridan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo'shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan bloklar to'liq faoliyat boshlaydi.

Neft-gaz tarmog'i korxonalarini barqaror rivojlanishini ta'minlash vazifasi faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilashni taqozo etadi. Sohaning ushbu yo'nalishlarini amalga oshirish uglevodorod xom ashyosini izlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishga imkon beradigan tegishli moliya resurslarini talab qiladi. Shu bois respublikada xorijiy investorlarni jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada eng ahamiyatli loyihalar qatoridan Gazprom va Lukoyl (Rossiya), CNODC (KNR), Petrovetnam (Vetnam), KNOC (Koreya), SASOL (JAR),

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

Orol loyihasi bo'yicha kompaniyalar Konsortsiumi kabi investitsion loyihalarni e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston neft-gaz tarmog'ini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishini ko'rib chiqamiz:

Uglevodorodlar zaxiralarini oshirish yo'li bilan resurslar bazasini yanada kengaytirish neft-gaz tarmog'i samarali faoliyatining asosini tashkil qiladi. Asosiy negizi neft va gazdan iborat bo'lgan bu zaxiralar mamlakat iqtisodiyotining yonilg'i-energetika resurslariga tobora oshib borayotgan ehtiyojini ta'minlaydi. Bunday sharoitlarda, neft va gaz konlarini izlash va respublikaning uglevodorod resurslarini yanada oshirish maqsadida, geologik qidiruv jarayoniga yangi hududlar va chuqur joylashtirilgan majmualarni jalb qilish masalasi ko'ndalang turibdi.

Eng istiqbollilari sifatida o'rganish uchun quyidagi yo'nalishlarini ajratish mumkin: neft va gaz konlarini izlash maqsadida – paleozoy qatlamlari (Ustyurt, Buxoro-Xiva va Farg'ona mintaqalari); Surxondaryo viloyatida tuz ostidagi yura qatlamlari; Surxondaryo mitaqasidagi Uchqizil-Mirshodin zonasidagi tegishli katamlar; yangi hududlar (O'rta-Sirdaryo depressiyasi va Zarafshon chuquri).

2019 yilgacha bo'lgan davr ichida quyidagi hududlarda geologik qidiruv ishlarini o'tkazishga mo'ljallangan investitsion loyihalarni amalga oshirish belgilangan:

- Qo'ng'irot uchastkasida;
- Boysun va Surxon investitsion bloklari;
- Xorazm va Meshekli-Tuzkoy investitsion neft-gaz uyumlari mavjud bloklar.

Uglevodorodlar bazasini kengaytirish maqsadida respublikada neft va gaz uyumlarini qidirishning an'anaviy yo'nalishlariga zarar etkazmagan holda **noan'anaviy uglevodorodlar manbalarini** izlash va o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar miqyoslari asta-sekin ortib boryapti.

Belgilangan geologik qidiruv ishlarining amalga oshirilishi 2020 yilga qadar O'zbekiston Respublikasining uglevodorodlar borasidagi salohiyatini 2014 yilda berilgan baholarga nisbatan **1,5 baravarga** oshirishga imkon beradi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

Va nihoyat, tarmoq korxonalari faoliyatining yana bir juda muhim yo'nalishi mavjud. U ham bo'lsa – **yuqori malakali kadrlarni tayyorlash**. Sir emaski, samarali va unumli ish olib borishga xodimlarning katta tajribasi, yuqori kasbiy mahorati va g'ayratli mehnatining optimal uyg'unlashuvi evaziga erishiladi, chunki faqat yuqori salohiyatli kadrlargina O'zbekiston neft-gaz tarmog'ining barqaror rivojlanish borasidagi strategik va taktik vazifalarni samarali hal qilishga qodir bo'ladilar.

Ushbu yo'nalishlarning barchasi bugungi kun talablaridan kelib chiqib, muntazam ravishda ishlab chiqiladigan va muvofiqlashtiriladigan tarmoq rivojlanishining joriy, o'rta va uzoq muddatli strategiyasida o'z aksini topgan.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

1.1.O'zbekistonda kimyoviy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va taraqqiyoti.

O'zbekistonda kimyo sanoatini barpo etish va uni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan xom ashyo bazasi va shart-sharoitlar hammasi etarli darajada mavjud bo'lgan bo'lsa ham kimyo sanoati nisbatan ancha kech paydo bo'ladi.

O'zbekistonda eng keksa kimyoviy ishlab chiqarish korxonasi (kichik-kichik keramik buyumlari ishlab chiqarishni hisobga olmaganda) 1906 yilda Farg'onada Vannov stantsiyasi yaqinida qurilgan neftni qayta ishlash zavodidir. Ikkinchi shunday zavod Farg'onada (Melnikov nomli) 1915 yilda qurildi. Ularda asosan kerosin olinardi va u yoritish maqsadida ishlatilgan (chiroqlarda yoqilgan).

Keyinchalik Toshkentda lak-bo'yoq va soda zavodlari (1920y.). Bekobod tsiment va oxak zavodlari (1926y.) qurilib ishga tushirilgan. O'zbekiston sobiq ittifoq tarkibida eng yirik paxtakor xo'jalik bo'lgani uchun, unda kimyo sanoatining vujudga kelishi asosan paxtachilik uchun zarur bo'lgan o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalarining qurilishidan boshlandi. 1940 yilda respublikamiz kimyo sanoatining giganti- Chirchiq elektrokimyo kombinati qurilib ishga tushirildi. Kombinat o'sha yilning o'zidayoq qishloq xo'jaligimiz uchun 1 ming 600 t.mineral o'g'it ishlab chiqardi. 1942 yilda Qo'qon superfosfat zavodi, 1965 yilda Navoiy kimyo kombinati, 1975 yilda Olmaliq ammos fos zavodlari 2000 yilda qizilqum fosforit zavodi kurilib ishga tushirildi. 1985 yilga kelib respublikamiz to'yimli moddalarini 100 foizga aylantirib hisoblaganda 1 mln.592 ming t.mineral o'g'it ishlab chiqardi va o'g'it ishlab chiqarish bo'yicha Bolgariya, Vengriya, Polsha, Yugoslaviya, Chexoslovakiyadan ham o'zib ketdi. Hozirgi paytda O'zbekiston Yaponiya bilan taxminan teng miqtorda o'g'it ishlab chiqarmoqda. Respublikamizda qurilish materiallarining asosi bo'lgan sement ishlab chiqarishning to'ng'ich korxonasi Bekobod sement zavodidir (1926y), keyingi yillarda Quvasoy (1932y.) va Angren (1949y.) sement zavodlari, 1968 yilda Ohangaron, 1978 yilda Navoiy sement

O'zg'Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:	Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:	Ochilov A.A.				

zavodlari qurilib ishga tushirildi. Natijada respublikamizning sementga bo'lgan ehtiyoji to'la qondirildi. Bu esa O'zbekistonda qurilish ishlarining rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchi jaxon urishidan keyingi tinch qurilish yillarida, chinni sanoati barpo etildi. Eng avval Toshkent chinni zavodi (1954y.) keyinchalik Samarqand chinni zavodi (1975y.),

Angren chinni va keramika buyumlar ishlab chiqarish kombinati (1976y.), Quvasoy chinni va shisha buyumlari zavodlari (1979y.) qurilib ishga tushirildi. Shuningdek, respublikada po'lat ishlab chiqarish korxonasi-Bekobod elektr po'lati olish zavodi (1944y.) Chirchiq, Samarqand, Oltin topgan (1965y.), Olmaliq (1980y.) sulfat kislota ishlab chiqarish zavodlari, ko'pgina boshqa anorganik moddalar ishlab chiqarish korxonalari: Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Angren kimyo metallurgiya zavodi, plavik shpat korxonalari, ingichka va qo'ytosh ruda kombinatlari, Muruntov tog'- metallurgiya kompleksi, Zarafshon gidrometallurgiya zavodi vaboshqalar qurilib ishga tushirildi.

O'zbekistonda organik kimyo sanoati boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda juda tez sur'atlar bilan rivojlandi. Organik kimyo sanoatining xom ashyosi asosan, ko'mir, neft, gaz, yog'och chiqitlaridir. Bizda ayniqsa gaz, g'o'zapoya zaxiralari ancha katta neft va ko'mir ham bor. Mana shu ashyolar respublikamiz organik kimyo sanoatining paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda 1976 yilda 361 mlrd.m³ gaz ishlab chiqarildi va bu sohada shu yiliyoq Polsha, Yaponiya, Frantsiya kabi yirik mamlakatlardan ham o'zib ketdi.

Organik moddalar ishlab chiqarish sanoatining gigantlaridan biri 1965 yilda qurilib ishga tushirilgan «Navoiy azot» ishlab chiqarish birlashmasi. Unda tabiiy gaz, kompleks qayta ishlanadi. Ushbu korxonaning ishga tushirilishi natijasida respublikamizda birinchi marta yangi sanoat maxsulotlari, yuzlab organik sintez maxsulotlarining xom ashyosi hisoblangan atsetelin: atsetaldegid, sirka, kislota, metil spirti, akrilonitril va boshqa bir qancha maxsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1972 yilda bu kombinatda sintetik jun-nitron tolasi ishlab chiqarila boshlandi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

Hozirgipaytda bu kombinatida yiliga 41 ming tonna turli rangda bo'yalgan nitron ishlab chiqarilmoqda.

1969 yilda Farg'ona sun'iy tola-atsetat ipagi ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. Bu zavod yiliga 70-80 ming t. Atsetat ipagi ishlab chiqaradi. 1982 yilda Chirchiq elektroqimyo kombinati kaprolaktam ishlab chiqaruvchi yirik tsex ishga tushirildi. Shuningdek, 1979-81 yillarda ishga tushgan Olmaliq kimyo zavodida, sintetik kir yuvish vositalari, shanpunlar, mashina moylari, naftalin, laklar, bo'yoqlar, bolalar o'yinchoqlari va boshqa o'nlab maxsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Namangan kimyo zavodida polietilen plyonkalari, Jizzax va Oxangaron plastmassa kombinatlarida plstmassa kuvurlari ishlab chiqarilmoqda Sho'rtan gaz kompleksi 2002 yilda qurilib ishga tushirildi. Unda har yili 125 ming tonna polietilen, 100 ming tonna oltingugurt va 1000 ming tonna suyuq propan gazi ishlab chiqarilmoqda. Bulardan tashqari respublikamizda Farg'ona furon birikmalari kimyo zavodi (1942 y.), Yangi yo'l bioqimyo zavodi, Andijon gidroliz zavodi (1953 y.), Toshkent va Farg'onada polivinilxlor asosida sun'iy charm, Toshkent va Guliston margarin zavodlari, Toshkent farmatsevtika, Farg'ona sun'iy qorako'l zavodlari va boshqa o'nlab korxonalar organik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarmoqda.

Hozirgi paytda respublikamizda jami 36 ta kimyo va neft kimyosi sanoati korxonalari, 3 ta Qora metallurgiya sanoati korxonasi, 9 ta chinni va shisha buyumlari sanoati korxonalari, 13 ta yoqilg'i sanoati korxonalari ishlab turibdi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

1.2.Neftni qayta ishlash zavodidagi asosiy maxsulotlar olish jarayonlari.

Neftni qayta ishlash korxonalarini qurish nuqtasini tanlab olishga bir qancha faktorlar bog'liqdir. Ulardan asosiysi ish atrofdagi tumanlarning neft maxsulotlariga bo'lgan extiyojidir. Albatta, korxona yaqinida neft konlarini bulishi maqsadga muvofiqdir. Shuni e'tiborga olib, neftni qayta ishlash korxonalari Boku, grozniy, ufa shaxarlari atrofida qurilgan. Neftning sifati uni qayta ishlash sxemasini aniqlagan. Masalan, moylarni neftning maxsus sortlaridan olingan.

Vaqt utishi bilan xomashyo bazasini neftni qayta ishlash korxonalari yaqinida joylashishi majburiy bo'lmay qoldi. Bunga sabab transportning, asosan truboprovod transportinig rivojlanganligi nefti uzoq masofalarga uzatish iqtisodiy samarali ekanligini ko'rsatdi. Texnik-iqtisodiy hisoblar shuni ko'rsatdiki, neftni transportirovka qilish neft maxsulotlari transportika qilishdan ko'ra iqtisodiy samaralidir. Shuning uchun neftni qayta ishlash korxonalarini neft konlaridan uzoqda, neft maxsulotlariga talab ko'p bo'lgan regionlarga qurila boshlandi.

Iqtisodiy rayonni u yoki bu neft maxsulotlariga bo'lgan extiyojiga qarab asosan korxonada neftni qayta ishlashni yunalishi aniqlanadi. Maxsulotning sifati bu sharoitda hech qanday rol o'ynamaydi, chunki barcha neftlardan yuqori sifatli neft maxsulotlar oladigan jarayonlar yaratilgan.

Neftni qayta ishlash korxonasini joylashtirish rayonini tanlab olinayotganda energetik resurslarinig mavjudligi, ishchi kuchlari bilan ta'minlanganligi va boshqa faktorlar katta axamiyatga ega.

Neftni qayta ishlash korxonalari uzining profili yunalishi buyicha:

1. Yoqilg'i
2. Yoqilg'i-moy
3. Neftkimyo yo'nalishli bo'ladi.

Neftni qayta ishlash korxonalari yana neftni qayta ishlash darajasi, ya'ni rangsiz neft maxsulotlarini olish darajasi bilan xarakterlanadi.

Endi xozirigi vaqtda ishlab turgan va bulishi mumkin bo'lgan neftni qayta ishlash sxemalari bilan tanishamiz.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

Rangsiz maxsulotlar to'liq olinmaydigan yoqilg'i varianti buyicha neftni qayta ishlash sxemasi. Bu sxema (1-sxema) atrofdagi rayonlarda mazutga bo'lgan talab katta bo'lganda qo'llaniladi. Mazut kotel yoqilg'isi – bug' qozonlariga yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Rangsiz maxsulotlarni ko'p olmaydigan korxonalar boshqa energetik manbalar bo'lmagan rayonlarda quriladi.

Neft qayta ishlanishidan oldin suvsizlantiriladi, tuzsizlantiriladi, keyin AT (atmosfera trubchatka) qurilmasida haydaladi. Bunda benzin, kerosin va dizel yoqilg'isi fraktsiyalari ajratib olinadi. Benzin distillyati fraktsiyalarga ajratiladi. Benzin fraktsiyalaridan biri (fr.62-85⁰C) katalitik riforming qurilmasida qayta ishlanadi. Olingan aromatik konsentratdan keyin aromatik uglevodorni ajratib olinadi. Boshqa og'ir benzin fraktsiyalari xam katalitik riforming qurilmasiga yuboriladi. Bu qurilmaning katalizati tovar avtomobil benzining asosiy komponenti hisoblanadi.

O'rta distillyatlar (kerosin va dizel yoqilg'isi) gidroochistka qurilmalarida oltingugurt birikmalaridan tozalanadi. Hidroochistka natijasida yuqori sifatli reaktiv yoqilg'isi va kam oltingugurtli dizel yoqilg'isi olinadi. Dizel yoqilg'isining bir qismi parafinsizlantiriladi va buning natijasida suyuq parafin va qishki dizel yoqilg'isi olinadi.

Neftni birlamchi haydash qurilmalari va katalitik riforming qurilmalarining gazlari gazni fraktsiyalash qurilmalarida qayta ishlanadi. Buning natijasida suyultirilgan propan, butan, izobutan olinadi. Engil fraktsiyalar to'liq olinmaydigan sxemada ishlaydigan korxonada benzinni chiqishi 10-20 % ni (neftdagi benzin fraktsiyasini potentsialiga qarab) tashkil kiladi.

Neftni AVT haydash – bug'lanishlar ko'p pog'onali jarayon (tuzsizlantirish, benzinsizlantirish, atmosfera va vakuumda haydash, benzinni barqarorlashtirish va ikkinchi haydash)dir, shu bois neftni hadash umumiy material balansini ham, uni pog'onama-pog'ona material balansini ham ko'rib chiqilishi mumkin. Birinchi holda material balans deb, miqdori 100% deb qabul qilinuvchi mahsulotlarni chiqish miqdorlari [% (mass.) da] tushuniladi. Ikkinchi holda esa har bir pog'onaning

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

material balansida deganda har bir pog'ona uchun Ushbu pog'ona hom ashyosiga nisbatan 100% deb qabul qilinuvchi berilgan bosqich haydash mahsulotlarini chiqish miqdori (% mass. da) tushuniladi (ular yig'indisi mahsulot emas, orqali mahsulot, masalan, benzinsizlantiruvchi kolonnada, bo'lishi mumkin).

Quyida haydashning oxirgi mahsulotlari bo'yicha material balansida haqida gap boradi. AVT ni texnologik hisob qilinganda (8.4-ga qarang) pog'onama-pog'ona material balans tuziladi.

Neft (I) (100%) qurilmaga 50 dan to 300 mg/l gacha mineral tuzlar va 0,5 – 1,0 % (mass.)miqdorda suv bilan birga keladi.

Uglevodorodli gaz (II). Uning neftga nisbatan olgandagi chiqish miqdori gazni kondensat oldi tayyorlovdan keyingi neftdagi erigan miqdoriga bog'liqdir. Agarda neft engil (0,8-0,85 zichlik bilan) bo'lsa, ushbu gazning chiqish miqdori – 1,5-1,8 % (mass.) ni tashkil qilishi mumkin. Og'ir neftlar uchun ushbu kamroq [0,3-0,8 % (mass.)], barqarorlashni o'tgan neftlar uchun esa u 0 ga tengdir.

Yuqorida ko'rsatilgan gazlarning umumiy chiqish miqdorini 90% ga yaqinini benzinsizlantirish kolonnasidan chiqarib olinadigan gaz tashkil qiladi. Ushbu gaz tarkibiga S_5 – qo'shimchali to'yingan uglevodorodlar S_1 - S_4 kiradi. Ushbu gazning quyi bosimi va uning kam miqdorlari undan ayrim uglevodorodlarni gazni fraktsiyalovchi qurilmalar (GFU)da ajratib olishga yo'l bermaydi, va ushbu gaz ko'pincha AVT pechlarida energetik yoqilg'i sifatida qo'llaniladi.

Ushbu gazning etarli yuqori chiqish miqdorlari (1,5 % va yuqori)da uni gaz kompressori bilan yuqoriroq bosim (2-4 MPa) gacha siqish va GFU da qayta ishlash iqtisodiy foydaliroq bo'lib qolishi mumkin.

Benzinni barqarorlashtirish quruq uglevodorodli gazi (III) – bu benzinda erigan holda qolib ketgan engil uglevodorod S_1 - S_3 ning bir qismidir. Uning chiqish miqdori ko'p emas. [0,1-0,2 % (mass.)].

Uning bosimi 1,0 MPa gacha, shu bois u GFU ga jo'natilishi mumkin, biroq kam miqdordaligi uchun ko'pgina gaz liniyasi II ga yo'naltiriladi va pechlarda yoqiladi.

O'zgi	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

Benzinni barqarorlashtirish suyultirilgan golovkasi (IV) – o'z tarkibida asosan propan va butandan iborat, pentanlar kabi qo'shimchalari bor. Uning chiqish miqdori ham ulkan emas [0,2-0,3 %(mass.)]. U suyultirilgan maishiy gazni komponenti sifatida yoki avtomobillar uchun Gazli motor yoqilg'isi (SPBTL yoki SPBTZ) sifatida qo'llaniladi.

Benzinni engil golovkasi (V) – bu benzinning KB – 85⁰S fraktsiyasidir. Neftga nisbatan uning chiqish miqdori 4 - 6% (mass.). Kimyoviy tarkibiga bog'liq holda uning o'ktan soni 70 (motor usuli bilan) dan oshmaydi, ko'pincha 60-65 ni tashkil etadi. U neft asosdagi erituvchilarni tayyorlashda qo'llaniladi yoki tovar avtomobil benzinini tayyorlashda qo'shish va oktan sonini 82-85 gacha ko'tarish maqsadlarida katalitik qayta ishlashga (izomerizatsiyaga) yo'naltiriladi.

Benzin fraktsiyasi 85-180⁰S (VI). Neftning fraktsion tarkibiga bog'liq holda va unga nisbatan chiqish miqdori keng chegaralarda tebranib turadi, biroq odatda 10-14 % ni tashkil etadi. Benzinning ushbu fraktsiyasini oktan soni quyi ($OS_M = 45 \div 55$), va shu bois uni katalitik xushro'ylashtirilgan (katalitik riforming) ga jo'natiladi. U erda alkanlar va naftenlar aromatik uglevodorodlarga o'zgarishi hisobiga uning oktan soni 88-92 gacha ko'tariladi va so'ng avtomobil benzinlarini bazaviy komponenti sifatida ishlatiladi.

Kerosin (X). Neftning ushbu pogonini ajratib olishni ikki varianti bo'lishi mumkin. Bir varianti – aviatsion kerosin – fraktsiya 140-230⁰S ni ajratib olish. Uning chiqish miqdori 10-12% ni tashkil etadi va u tayyor tovar reaktiv yoqilg'isi TS – 1 qilib ishlatiladi. Boshqa varianti – agarda neftdan bunday yoqilg'ini olish mumkin bo'lmay qolsa (oltingugurt miqdori bo'yiga, kristallanishi boshlanish haroratsi yoki boshqa ko'rsatgichlar bo'yicha), atmosfera kolonnasining birinchi yonaki pogoni X sifatida qishki yoki arktik dizel yoqilg'isining komponenti chiqarib olinadi. Bunday komponent (140-280⁰S yoki 140-300⁰S fraktsiya) ning chiqish miqdori 14-18% (mass.) ni tashkil qiladi. U yo bevosita ushbu yoqilg'ilarni komponenti sifatida (agar oltingugurt miqdori bo'yicha va xiralanish, hamda qotish haroratlari bo'yicha

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

normalarni qoniqtirsa), yoki oltingugurtdan tozalashga va n-alkanlarni ajratib olishga (deparafinizatsiyaga) yo'naltiriladi.

Dizel yoqilg'isi (XI). Oqish X bo'yicha aviakerosin olinadigan bo'lsa, uning chiqish miqdori 22-26 % (mass.) yoki agarda qishki yoki arktik dizel yoqilg'isi komponenti olinsa – 10-12 % (mass.) ni tashkil etadi. Odatda ushbu oqish qishki yoki yozgi dizel yoqilg'isining bevosita (agarda oltingugurt miqdori bo'yicha va xiralanish haroratsi bo'yicha normalarni qoniqtirsa) yoki oltingugurt va n-alkanlardan tozalagandan keyin komponentidir.

Yengil gazoil fraktsiyasi (XIV). Uning neftga nisbatan hisoblagandagi chiqish miqdori 0,5-1,0% (mass.) ta'kidlanganidek Ushbu fraktsiya 100-250⁰S mazutni pechda qizdirilganda termodestruksiyasi mahsulotidir. Uning tarkibiga, shu bois, nafaqat to'yingan, to'yinmagan alkanlar ham kiradi. Uni dizel yoqilg'isi komponenti qilib (agarda u oltingugurtdan gidrotozalash uchun yo'naltirilsa), yoki engil qozon yoqilg'isiga jo'ntiladi.

Yengil vakuum – gazoil (XV) – fraktsiya 240-380⁰S, uni neftga nisbatan chiqish miqdori 3-5% (mass.) o'z sifat ko'rsatkichlari bo'yicha u yengil dizel yoqilg'isi XI ga yaqin vash u bois, ko'pincha u bilan qo'shiladi va mos ravishda ishlatiladi.

Vakuum – gazoil (XVI) – yoqilg'i varianti (agarda neft yuqori sifatli moylar olishga imkon bermasa) bo'yicha mazutni vakuumda haydash asosiy distillyatillatidir. Uning qaynash chegaralari 350-500⁰S (ayrim hollarda 350-500⁰S). Neftga nisbatan chiqish miqdori mos ravishda 21-25% (mass.) (yoki 26-30 %). Hom ashyo sifatida katalitik kreking (yuqori oktanli benzin va boshqa motor yoqilg'ilari olish uchun) yoki gidrokreking (aviatsion kerosin yoki yuqori indeksli moylar olish uchun) jarayonlarida qo'llaniladi. Uni yo bevosita [agarda vakuum – gazoildagi oltingugurt miqdori 0,5% (mass.) dan quyi bo'lsa], yoki oltingugurt va boshqa qo'shimchalar (azot, metallar) dan tozalangandan so'ng ishlatish mumkin.

Agarda neft (va mos ravishda mazut) yuqori indeksli moylar olish imkonini bersa, vakuum – kolonna 5 dan bita pogon XVI o'rniga moy distillatlarining ikki –

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

350-420⁰C [neftga nisbatan chiqish miqdori 10-14% (mass.)] va 420-500⁰C [chiqish miqdori 12-16% (mass.)] pogoni chiqarib olinadi. Ikkala pogon ham ulardan o'rta va yuqori qovushqoq bazaviy moylar disstillyatlarini olish uchun tozalash (smoladan, yuqori molekulyar aromatik birikmalardan, parafindan, oltingugurtdan) ga jo'natiladi.

Gudron (XVII) - agarda qaynashining oxiri 500⁰C li vakuum-gazoil ajratib oilnsa – 500⁰C dan yuqorida qaynab bo'luvchi neftning qoldiq qismidir.

Uning tarkibidagi asfalt – smolasimon moddalar va og'ir uglevodorodli fraktsiyalar miqdoriga bog'liq holda neftga hisob qilingan chiqish miqdori 10 dan 20% (mass.) gachadir. Ayrim hollarda, masalan tengsiz nefti qayta ishlaganda 5 gacha, karajanbass nefti qayta ishlanganda esa – 45% (mass.) gacha etadi.

Gudronni bir necha variantlar bo'yicha qo'llash mumkin:

- Og'ir qozon yoqilg'ilarini komponenti sifatida; qoldiq bitum (agarda neft uni olish uchun imkon bersa) sifatida yoki oksidlangan bitumni olish uchun xom ashyo sifatida;

- Kokslash uchun xom ashyo va undan qimmatli neft koksini olish uchun (agarda neft kam oltingugurtli bo'lsa);

- Bazaviy qoldiq moylarini olish uchun xom ashyo sifatida (1 – va 2 – guruh va nimguruhi neflari uchun).

Sanab o'tilganda maqsadiy oxirgi maxsulotlardan tashqari, neftni AVT da haydashda qayta ishlash bir nechta chiqindilari ham hosil bo'ladi. Ular quyidagilardir:

1. ELOU oqava suvlari.
2. Suv bug'i kondensati (KV).
3. Ejektorlarining kondensirlanmaydigan gazi (XIII).

AVT ishining ahamiyati xarakteristikalar bo'lib tiniq distillatlar yig'indisini va moy distillatlari yig'indisini ajratib olish ko'rsatkichlari xizmat qiladi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

1.3.Qayta ishlash korxonalarida hosil bo'ladigan yengil gazlar tarkibi.

Neft mahsulotlarini ikkilamchi qayta ishlash jarayonlarida hom ashyoga nisbatan 5-20% gaz mahsulotlari hosil bo'ladi. Yiliga 12 mln.t. neftni qayta ishlaydigan zamonaviy zavodlarda taxminan 1 mln. t gaz/ 8% mass.dan oshiqroq hosil bo'ladi. Piroliz jarayonida asosan to'yinmagan gaz olinadi.

Katalitik jarayonlarda ham, sezilarli miqdorda gaz mahsulotlari hosil bo'ladi: katalitik riformingda 10-20% mass. Shu jumladan 1-2% mass. vodorod/; katalitik krekingda 12-15% mass.

Gazlarning tarkibiy qismi qaysi jarayonda xosil bo'lishiga bog'liq. Vodorod bosimida bo'ladigan jarayonlarda (riforming, izomerizatsiya, gidrokreking, gidroochistka) hosil bo'ladigan gazlar asosan to'yingan gazlardan tashkil topgan bo'lib, to'yinmagan gazlar aydarlik yo'q. Bu gazlar asosan: metan, etan, propan, n-butan va izobutandan iboratdir.

Yuqori xarorat ostida boradigan va qisman katalitik jarayonlarda hosil bo'lgan gazlar tarkibida to'yinmagan gazlar ham bor. Bularning miqdori hom ashyo sifatiga va asosan jarayonning ko'rsatkichlariga bog'liqdir. Katalitik krekingda qo'llaniladigan katalizatorga bog'liq.

Gudronni uzluksiz koksovanie qilish qurilmasida haroratda 530-540 °C xaroratda ≈30% mass. to'yinmagan gaz hosil bo'ladi, haroratni 600 °C gacha ko'tarilsa to'yinmagan gazlarning miqdori 50% mass.gacha ko'payadi.

Zavodlardagi ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan gazlarning yog'li qismi (jirnaya chast) C₃-C₄ gazlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu qismida izobutan va butilen ko'p bo'lishi uchun moddalarni alkilir jarayonida ishlatiladi (yuqori oktan sonli avtobenzin komponentini olish uchun). Gazlarning quruq qismini (suxaya chast) bunda asosiy qismini vodorod, metan, etan va etilen tashkil etadi. Bu quruq gazdagi vodorod va etilenlar ham alohida ahamiyatga ega. Vodorodni asosan riforming gazlaridagisi ishlatiladi, boshqa gazlarda vodorodni miqdori juda kam. Zamonaviy zavodlarda 3-4,5% mass.quruq gaz hosil bo'ladi. Uni tarkibida taxminan:

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

vodorod-3%; metan -27%; etilen 27%; etan- 30% mass qolgani C_3-C_4 gazlaridan iboratdir. Shuni ta'kidlash kerakki gazlarning tarkibi har qaysi zavodda xar xildir.

Yuqori xaroratli kreking / bosim ostida boradigan/ va kokslash ustanovkalaridan ajralib chiqadigan gazlar “quruq” gazlar hisoblanadi. Katalitik kreking jarayonidan chiqadigan gazlar “yog’li” gazlarga kiradi / ularda 60-75% mass. C_3-C_4 gazlari bor/.

Zamonaviy zavodlarda ajralib chiqayotgan gazlarni qayta ishlash, zavodni samaradorligini oshirishga o’z xissasini qo’shadi.

“Quruq” gazlar ba’zi zavodlarda konversiya yordamida vodorod olish uchun ishlatiladi, ba’zi zavodlarda yoqilg’i sifatida ishlatiladi.

Sifati past neft maxsulotlarini piroliz jarayoniga berilib, undan asosan to’yinmagan gazlar aralashmasi olinadi. To’yinmagan gazlar polimerlash jarayonida hom ashyo sifatida ishlatiladi. Gazlarni tarkibi asosan etilendan iborat - quruq gazlarga kiradi.

Zamonaviy zavodlarda ikkita gaz ajratuvchi qurilmalar mavjuddir: birida to’yingan gazlar ajratiladi, ikkinchisida to’yinmagan gazlar.

Mamlakatimizni er ostidan olinayotkan gazlarning 70 % ga yaqini sanoatda yonilg’i va hom ashyo sifatida ishlatiladi, 20 % ga yaqini elektroenergiyani ishlab chiqarish uchun yonilg’i sifatida foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda tabiiy gazlar yer ostidan olingandan so’ng konlarda qayta ishlanib, ularni tovar gaz holiga keltiriladi, shu bilan birga, undan etan, propan, butan, izobutan gazlari, oltingugurt, merkaptanlar, gazokondensat, hatto motor yonilg’ilari ishlab chiqariladi.

Yer ostidan gaz bosim ostida chiqadi va tashqariga chiqqandan keyin bosim pasayadi. Shuning natijasida gazning tarkibidagi suyuq holdagi qismi kondensatsiyaga uchrab ajralib chiqadi, buni gaz kondensati deymiz. Kondensatdan tozalangan gazni tarkibida yana birmuncha zaharli chiqindilar bor.

Tabiiy gaz C_nH_{2n+2} to’yingan uglevodorodlardan iborat. Kimyoviy tarkibi: asosan metan gazi 96-99 % ni tashkil etadi. Oz miqdorda C_2-C_4 gazlari bor. SHular

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

bilan birga n-pentan, izo-pentan, geksan, heptan va boshqa og'ir uglevodorodlar ham qo'shilib chiqadi. Bulardan tashqari azot, CO₂, H₂S, inert gazlar (Ar, He, Kr, Xe, Ne) ham mavjuddir.

Azot va SO₂ hamma gazlarda 10 %, ba'zan undan ortiq hajmda uchraydi. Bular keraksiz gazlardir. N₂S gazi esa zaharli, suv bilan qo'shilib metall buyumlarni korroziyaga olib keladi. SHuning uchun 100 m³ gazda 2 g H₂S qolguncha tozalanadi.

Geliy esa 1 % dan kamroq.

Tabiiy gaz odatda uzoq masofalarga trubalar orqali uzatiladi. Gaz yo'lida iqlim sharoiti har xil bo'lganligi sababli gazni tarkibidagi suvdan tozalash ahamiyatga ega.

Gazni tarkibidagi namlik, suyuq uglevodorodlar, zaharli va boshqa chiqindilar gaz trubalarini ish samaradorligini kamaytiradi, korroziyani kuchaytiradi, kompressorlarni istemol qiladigan energiyasini ko'paytiradi, kuzatish va tekshirish moslamalarini trubkalarida tiqilib qoladi. Bular texnologiya qurilmalarini ishini murakkablashtiradi, avariya holatiga olib kelishi mumkin. SHu sababli tovar gaziga quyidagi talablar qo'yiladi:

1) Bizni sharoitimizda qish davrida (X-IV) - 6°C, yoz davrida (V-IX) 0 °C dan yuqori xaroratda gazni tarkibidan suv kondensati hosil bo'lishi mumkin emas.

2) Mexaniq chiqindilar 100 m³ gazni tarkibida 0,1 g dan oshmasligi shart.

3) N₂ gazini miqdori 100 m³ gazni tarkibida 2 g dan oshmasligi shart.

4) Kislorodni miqdori 1 % dan oshmasligi shart.

5) Qish va yoz fasllarida ± 0°C da gazlarning tarkibidagi suyuq CH larni ajralib chiqmasligi.

Tovar gazni sifatini uzluksiz ravishda avtomatlashtirilgan moslamalar yordamida tekshirib boriladi.

Gaz va suyuqlik aralashmasini ajratishni fizikaviy asoslari.

Tabiiy gaz maxsus qurilmalarda tindirilib uni gaz kondensati va suvdan ajratilgandan keyin ham gazning hajmida suyuqlikning juda mayda zarrachalari qoladi. Zarrachalarning kattaligi 0,1-20 mkm dan to 1000 mkm ga teng. Gazni

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

trubalar moslamalar ichida xarakat qilganda suyuqlik zarrachalari bir-biri bilan birlashib zarracha kattalashishi mumkin va aksincha gaz yuqori tezlik bilan xarakat qilsa zarrachalarning hajmi maydalanib ketishi mumkin.

Tovar gazning 1 m³ da 300-350 mg suyuqlik qolishi mumkin. Qolgan qismini maxsus separatorlarda ajratib olinadi. Separatorlar ishlash uslubiga qarab bir necha xil bo'ladi:

- 1) Suyuqlik zarrachalari o'z og'irligi tufayli ajraladi-gravitatsionnyy.
- 2) Zarrachalar inertsia kuchi yordamida ajraladi-inertsionnyy.
- 3) Zarrachalar markazdan uzoqlashuvchi kuch hisobiga ajraladi-tsentrobejniy.
- 4) Filtrlovchi - suzuvchi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

1.4. Absorberlar va ularning turlari.

Gazlarning suyuq yutuvchilar(absorbentlar)da yutilishi(gazlarning erishi) jarayoniga, *absorbtsiya* deb aytiladi. Eritma tarkibidan erigan gazlarning ajralib chiqishi, ya'ni absorbtsiyaga teskari bo'lgan jarayon *desorbtsiya* deyiladi. Absorbtsion jarayonlar gaz va suyuq fazalarning ishtiroki bilan kechadi. Absorbtsiyada modda gaz fazasidan suyuq fazaga o'tishi kuzatilsa, desorbtsiyada uning teskarisi suyuq fazadan gaz fazasiga o'tadi.

Amaliyotda ko'pincha aloxida komponentlar ma'lum miqdorda erituvchilarda yutilishi mumkin bo'lgan gazli aralashmalar absorbtsiya qilinadi. Gazli aralashmaning yutilmaydigan qismi inert gazlar deb aytiladi.

Suyuq faza yutuvchi(absorbent)dan va gaz fazasidan absorbtsiyalangan (yutilgan) komponentdan tashkil topgan. Agar yutuvchi molekulasi va gaz aralashmasidan absorbtsiyalangan komponent molekulasi o'rtasida o'zaro kimyoviy ta'sirlashish sodir bo'lmasa, bu jarayon *fizikaviy absorbtsiya* deyiladi. Yutuvchi va absorbtsiyalangan komponent molekulari o'rtasida kimyoviy reaksiyalar borsa, bu jarayon *xemosorbtsiya* deb aytiladi.

Gazli va suyuqli fazalarning to'qnashtirilishini amalga oshirishning turli xil usullari mavjud. Suyuq aralashmalarni rektifikatsiyalash kabi absorbtsiya ham ko'pincha nasadka qavatiga yoki ma'lum bir tarelkalar soniga ega bo'lgan tsilindr apparatlari (absorberlar)da amalga oshiriladi. Absorberlarda yutuvchi yuqoridan pastga qarab, gaz aralashmasi esa, qarama-qarshi yo'nalishda pastdan yuqoriga qarab harakatlanadi. Absorberning yuqori qismidan tarkibidan absorbtsiyalangan komponentlari ajratilgan gaz aralashmasining qoldig'i chiqariladi.

Nasadkali absorberlarda suyuq yutuvchi va gaz fazalarning to'qnashishi to'xtovsiz amalga oshiriladi. Tarelkali kolonnalarda esa bunday to'qnashish bosqichma - bosqich , ya'ni tarelkalarda amalga oshiriladi.

Amalda fizikaviy absorbtsiyada gaz fazasidan komponentlarni to'liq ajratib bo'lmaydi.

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

Xemosorbtsiyada - gaz tarkibidagi absorbttsiyalanayotgan komponent suyuq faza bilan bug'lanmaydigan kimyoviy birikmalar ko'rinishida bog'lanadi. Agar kimyoviy rektsiya qaytmas bo'lsa, gaz tarkibidan komponentni to'liq ajratib olish mumkin.

Bosimning ortishi va haroratning pasayishi bilan absorbttsiya jarayoni aktivlashadi. Desorbtsiya jarayoni esa past bosim va yuqori haroratda olib boriladi. Konstruktsiyasi bo'yicha absorber va desorber kolonnalari bir - biriga o'xshaydi.

Absorberlar va ularning turlari.


Absorbtsiya jarayoni fazalarni ajratuvchi yuzada ro'y beradi. SHu sababdan absorberlarda iloji boricha gaz va suyuqlik o'rtasidagi to'qnashuv yuzasini ko'paytirish zarur. Ushbu to'qnashuv yuzasini hosil qilish usuliga ko'ra absorberlar shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) yuzali va yupqa qatlamli (jumladan nasadkali); 2) barbotajli (tarelkali); 3) suyuqlik sochib beruvchi.

Nasadkali absorberlar. Bunday kolonnalar eng ko'p tarqalgan yuzali absorberlar qatoriga kiradi. Har xil shaklli va o'lchami 12/150 mm bo'lgan qattiq jismlar, ya'ni nasadkalar bilan to'ldirilagan vertikal kolonnalarning tuzilishi sodda va yuqori samaradorlikka ega bo'lgani uchun ular sanoatda keng ishlatiladi. Nasadkali kolonnalarda nasadkalar gaz va suyuqlik o'tadigan tayanch tyrlarga yrnatiladi. Qurilmaning ichki bo'shlig'i nasadka bilan to'ldirilgan bo'ladi yoki har birining balandligi 1,5 - 3 m bo'lgan qatlamlar holatida joylashtiriladi. Gaz turning tagiga beriladi, so'ngra nasadka qatlamidan o'tadi. Suyuqlik esa kolonnaning yuqori qismidan maxsus taqsimlagichlar orqali sochib beriladi, u nasadka qatlamidan o'tayotganda pastdan berilayotgan gaz oqimi bilan uchrashadi. Kolonna samarali ishlashi uchun suyuqlik bir tekisda, qurilmaning butun ko'ndalang kesimi bo'ylab bir har sochib berilishi kerak. Bu qurilmalarda kontakt yuzasi esa nasadkalar yordamida hosil qilinadi.

Odatda nasadkali absorberlarning diametri 4 m dan ortmaydi. Katta diametrli kolonnalarda gaz va suyuqlikni qurilmaning ko'ndalang kesimi bo'yicha bir me'yorda taqsimlash juda qiyin, shu sababdan katta diametrli absorberlar

O'zg	Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:		Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:		Ochilov A.A.				

samaradorligi ancha kam bo'ladi. Biroq sanoatda diametri 12 m gacha bo'lgan qurilmalar ham ishlatiladi.



1.1-rasm. Nasadkali absorber:

1- qobiq; 2- tarqatuvchi tarelka;

3-nasadka qatlami; 4- tayanch tirlari;

5-qayta taqsimlovchi tarelkalar;

6,8-lyuklar; 7-qaytaruvchi qurilma;

A-gaz kiradigan shtutser;

B-gaz chiqadigan shtutser;

V-suyuqlik beradigan shtutser;

G va D – suyuqlik chiqadigan shtutserlar.

1.1-rasmda nasadkali absorber tasvirlangan. Qurilmaning qobig'i kavsharlash yo'li bilan yaxlit qilib tayyorlanadi yoki bir necha alohida olingan qismlardan tuzilgan bo'ladi. Nasadkalarni namlash uchun suyuqlik tarkatuvchi tarelka 2 orqali beriladi. Nasadka 3 qurilmaning balandligi bo'yicha bir necha qatlamlarga ajratilgan holatda tayanch tirlari 4 ning ustiga joylashtiriladi. Nasadkani qurilmaga yuklash yoki undan tushirish uchun lyuklar 6 va 8 xizmat qiladi. Kolonnaning yuqori qismida suyuqlik tomchilarini qaytaruvchi qurilma 7 joylashtirilgan. Nasadkali kolonnada gaz va suyuqlik qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi. Bunda gaz kolonnaga pastki shtutser A orqali beriladi va shtutser V yordamida tashqariga chiqariladi. Namlash uchun suyuqlik kolonaga yuqorigi shtutser V orqali yuboriladi va pastki shtutser G yoki D yordamida tashqariga chiqariladi.

O'zgi Varaq	Hujjat №	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:	Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:	Ochilov A.A.				

Hozirgi kunda sanoat kolonnalarini to'ldirish uchun turli nasadkalar ishlatiladi. Nasadkalar solishtirma yuzaga, minimal massaga va katta erkin hajmga ega bo'lishi kerak Ular quyidagi ko'rsatgichlar bilan xarakterlanadi:


1. Solishtirma yuza m^2/m^3 ; bu kattalik absorberning $1 m^3$ hajmiga to'ldirilgan nasadkaning yuzasini bildiradi.

2. Erkin hajm, m^3/m^3 ; bu kattalik $1 m^3$ hajmdagi nasadkalarning ichida qancha erkin hajm borligini ko'rsatadi.

3. Suyuqlikning ushlab qolish qobiliyati, m^2/m^3 ; bu kattalik nasadka qatlamining hajm birligida ushlab qolinadigan suyuqlikning miqdorini bildiradi.

4. $1 m^3$ nasadkaning massasi, kg.

Nasadkalar sifatida Rashig halqalari, keramik buyumlar, koks, maydalangan kvarts, polimer halqalar, maydalangan kvarts, polimer halqalar, metall dan tayyorlangan to'rlar, sharlar, propellerlar, egarsimon elementlar va boshqalar ishlatiladi (1.2-rasm).



1.2- rasm. Nasadkalarning turlari:


a- rishig halqasi; b-Lessing halqasi; v-krestga o'xshash to'siqli halqa; g- bitta spiralli halqa; d- ikkita spiralli halqa; j- Berl egari; z – Intaloks egari.

Suyuqlikni sochib beruvchi absorberlar. Bu absorberlarda fazalarni o'zaro jips kontakti suyuqlikni gaz oqimiga sochib yoki yoyib berish usuli orqali amalga

O'zg Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:	Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:	Ochilov A.A.				

oshiriladi. Gaz bilan suyuqlik bir-biriga nisbattan qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi. Ichi bo'sh sochib beruvchi absorberlar vertikal kolonnadan iborat bo'lib, yuqori qismiga suyuqlikni sochib beruvchi maxsus forsunkalar o'rnatiladi (3 - rasm). Sochib beruvchi absorberlarda forsunkalardan suyuqlik uzoqlashib, tomchilarga aylanishi natijasida hajmiy modda o'tkazish koeffitsientining qiymati birdan kamayadi. SHu sababli bu qurilmalarda forsunkalar ma'lum masofada qurilmaning balandligi bo'yicha bir necha qator qilib o'rnatiladi. Forsunkali absorberlarda gazning tezligi odatda 1-1,5 m/sek ga teng bo'ladi.

Sochib beruvchi ichi bo'sh absorberlarning tuzilishi sodda, gidravlik qarshiligi kam, iflosroq gaz aralashmalarini ham tozalash mumkin, boshqarish, tuzatish va tozalash oson. Kamchiliklari: bu qurilmalarning effektivligi yuqori emas, suyuqlikni sochib berish uchun ko'p energiya sarflanadi, loyqalangan suyuqliklar bilan ishlash qiyin, fazalarning kontakt yuzasini oshirish uchun ko'proq suyuqlik sarflanadi, suyuqlik tomchilari kolonnadan chiqib ketmasligi uchun gaz tezligining miqdori kichik qiymatga ega.



1.3-rasm. Suyuqlikni sochib beruvchi absorberlar:

a-ichi bo'sh; b-sharsimon nasadkali.

O'zg Varaq	Hujjat№	Imzo	Sana	5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi	bet
Bajardi:	Zubaydilloyev Sh.				
Rahbar:	Ochilov A.A.				

